

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

**SULTANIYAZOV MADIYAR BAXTIYAROVICH**

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA TALABA-YOSHLARNI  
TARBIYALASHNING INNOVATSION  
MEXANIZMLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Sultaniyazov Madiyar Baxtiyarovich**

**Globalashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion  
mexanizmlari.....5**

**Султаниязов Мадияр Бахтиярович**

**Инновационные механизмы обучения студентов в процессе  
глобализации.....25**

**Sultaniyazov Madiyar Bakhtiyarovich**

**Innovative mechanisms for teaching students in the context of  
globalization.....45**

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....47**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

**SULTANIYAZOV MADIYAR BAXTIYAROVICH**

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA TALABA-YOSH LARNI  
TARBIYALASHNING INNOVATSION  
MEXANIZMLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2186 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.vocedu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tilegenov Askarbay Tolegenovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirov Quandiq Aytbaevich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Olimov Shirinboy Sharopovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: www.cspi.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**U.N. Xodjamkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., prof.

**F.T. Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi g.f.f.d. (PhD), dotsent

**V.B. Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafadoktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda barchamiz «globallashuv» atamasini eshitishimiz bilan oq, eng avvalo uning salbiy oqibatlarini haqida o'ylay boshlaymiz. Vaholanki, globallashuvning yoshlar tarbiyasida ijobiy ta'sirlaridan ham ko'z yuma olmaymiz. Buni chuqurroq anglashimiz uchun biz, globallashuv nima va u qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur anglab yetmog'imiz darkor. Jahon miqyosidagi muammolar globallashuv jarayonida bir tomonlama hal etilishi darajasidan allaqachon yuqorilab ketdi. Hech kim, hech bir davlat masalalarga bir tomonlama yondasha olmaydi. Ilg'or, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan texnik qurilmalar inson ongi mahsuli sifatida Yer sharini, kosmosni, atrof-olamni to'liq nazorat ostida ushlab imkoniyatlariga erishmoqda. O'tgan asrlarda voqea-hodisalar o'tmish sifatida tarixdan joy oldi. Yangi fikir, yangi ong kelajak sari yangicha ko'rinishda dadil qadam qo'yimoqda. Jahon xalqlari dunyoda tinch-totuv, barqarorlik, hamjihatlik, yakdillik tamoyillari asosida demokratik jamiyatlar tashkil etib yashashga intiladi. Globallashuv – bu turli mamlakatlar iqtisodi va madaniyati, ma'naviyati, odamlar o'rtasidagi ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Jahonda globallashuv jarayonining asosiy quroli sifatida esa biz internet tarmoqlari ommaviy axborot vositalarini ko'rsatishimiz mumkin. Globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab kun sari oshib bormoqda. Har qanday demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, teleradio kanallari muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ilm-fanidagi yangiliklar, shu jumladan turli xil ixtirolar, olamshumul o'zgarishlar iqtisodiy taraqqiyot, ommaviy axborot vositalari orqali namoyon bo'lmoqda. Bularning bari yaxshi albatta. Har xil ilmiy yangiliklarni butun dunyodagi yangi axborotlarni kun sari o'rganish, ularning ilmiy dunyoqarashini yangilaydi va shu jumladan oddiy ilmiy dunyoqarash falsafiy dunyoqarashga aylanadi. Bugungi kun yoshlari barcha davlatlar iqtisodiyoti, madaniyati, ma'naviyati, tili va albatta ilg'or tajribalarni o'rganib, hayotga tadbiq etmoqda. Ilmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda har bir daqiqada eng kamida yettita va undan yuqori axborot kelib tushmoqda. Globallashuv davrida axborotga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi bois inson o'ziga kerakli bo'lgan har xil ma'lumotlarni olishi mumkin. Dunyo tamadduni turli xalqlarning o'ziga xos an'analari, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan go'zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli. Lekin qaysidir davlat yoki davlatlar, qaysidir xalq yoki xalqlar globallashuvni o'z mentalitetidan kelib chiqib, o'zgalarga tiqishtirishi kishilik jamiyatiga to'g'ri kelmaydigan holat hisoblanadi. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdin jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarga shikast yetkazishi, xalq o'z ildizidan ayrilgan «omma»ga, millat o'z qiyofasini yo'qotgan «manqurt»ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday xatarga yo'l qo'ymaslikning chorasi bitta: o'zgalar qadriyatini kamsitmagan holda o'z qadriyatlarimizni mahkam turib himoya qilishimiz, lozim bo'lsa, jumla dunyoga ko'rsatishimiz kerak. Lekin globallashuv jarayonida ayniqsa talab-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlari maxsus ishlab chiqilmadi. Dunyo ilm-fanining usullari va dasturlaridan samarali foydalanish maqsadida globallashuv

jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning yangi mexanizmlarini o'rganish zarurati kuchaymoqda.

Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan, g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf to'g'irish mumkin bo'lgan tahdidlar, o'z yechimini kutayotgan eng muhim muammolar masalalarga e'tiboringzni qaratmoqchimon deb, oltita masalani olg'a suradi<sup>1</sup>. Ta'lim sohasidagi mazkur hujjatlar respublikamizda ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgan holda, xalq ta'limi sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo'l ochildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlaridagi asosiy maqsad – xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to'g'risida”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi 5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida” farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi 2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida” hamda 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlarida, va yana boshqa shu soha bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan masalalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Allomalarning merosi vositasida globallashuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalash muammosi bilan falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, inson va jamiyat, etnografiya va boshqa fanlar namoyondalari shug'ullanib kelmoqdalar.

Sharq mutafakkirlaridan Yusuf Xos Xojib, Abu Nasr Farobiy, Abdullo Avloniy, Amir Temur, Abdullo Qodiriylar<sup>2</sup> yoshlar tarbiyasida ma'naviy axloqiy jihatlarni o'z

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

<sup>2</sup> Қаранг: Юсуф Хос Хожиб. Кутатғу билиг. Саодатга йўлловчи билимлар. – Тошкент: Фан, 1991; Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. Танланган асарлар. – Тошкент: Халқ мероси, 1993; Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Амир Темур. Амир Темур ўғитлари. (Тўплам). – Тошкент: Наврўз, 1992; Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007.

asarlari talqin etganlar. Faylasuf olimlarimizdan M.Xayrullaev, Z.Mirtursunov, X.Alikulov, N.Raxmonov, I.Jabborov, N.Ortiqov, M.Umarov, N.Imomnazarov, E.To‘raqulovlar<sup>3</sup> shaxs tarbiyasi haqida fikr yuritar ekanlar insonni moddiy va ma‘naviy taraqqiyotining yaratuvchisi, erkin ijodkor sifatida falsafiy jihatdan talqin etadilar.

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlar ma‘naviy va madaniy mobilligi, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama chuqur o‘rganishda pedagog olimlarimizdan O.Musurmonova, M.Quronov, S.Ochilov, U.Maxkamov, K.Haydarov, S.Raximov, E.Yusupov, K.Hoshimov, M.Inomovlar<sup>4</sup>, o‘quvchilarda ma‘naviy ahloqiy madaniyatni shakllantirish, mustaqillik yillarida tarbiya jarayonlari va yosh avlod ma‘naviyatini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratishga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlar olib bordilar.

Mustaqil davlatlar olimlari V.G.Gerasimenko, A.A.Malyuk, D.P.Zegjda kabilar globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalariga kirib borib, uning milliy qadriyatlarini, turmush tarzi, hamda e‘tiqod va psixologiyasiga ham o‘z ta‘sir ko‘rsatishini tadqiq qildilar.

Xorijda talaba yoshlarni tarbiyalash yuzasidan Thomas Steven Barrett, Jerome Seymour Bruner, P.F.Lesgaft kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu globallashuv jarayonning rivojlanish qonuniyat va tamoyillari, bu olimlarning nuqtai nazaricha, butun dunyoda iqtisodiy va madaniy makonning paydo bo‘lishi, hamda yagona insoniy mushtaraklikning vujudga kelishi, axborot almashuv jarayonida yagona makonning barpo etilishi kishilik sivilizatsiyasining yangi shakli yuzaga kelishiga olib boradi – degan ilmiy mulohazalari diqqatga sazovordir.

Ammo yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning ishlarida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion usullari, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan bog‘liqlik jihatlari nazariy yoki amaliy muammolariga bag‘ishlangan fikrlar tadqiq etilmagan. Shu bois, globallashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlaridan foydalanishni atroflicha tadqiq etish dolzarflik kasb etmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali ish rejasining A1-XT-0-92997

---

<sup>3</sup> Qarang: Xayruullaev M.M. Ўтмиш мутафаккирлари таълим – тарбия хақида / Халқ педагогикаси инсон камолотининг асоси. 1-китоб. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1992; Миртурсунов З. Ўзбек халқ педагогикаси. – Тошкент: Фан, 1973; Аликулов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим -тарбия хақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981; Рахмонов Н. Урхун битиглари, Қадимий хикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987; Жабборов И. Турмуш тарзи, урф-одот ва одат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990; Ортиқов Н. Таълим ва ислом: ёшларни тарбиялашдаги муаммолар ва ечимлар. – Тошкент: Фан, 1994; Умаров М. Биз англаётган хақиқат. – Тошкент: Маънавият, 2008; Имомназаров Н., Эшмухаммедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Ислом университети, 2001.

<sup>4</sup>Qarang: Musurmonova O. Maъnaviy kadriyatlar va ёшлар тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б. 192.; Куронов М. Мактаб маънавияти ва миллий тарбия. – Тошкент: Фан, 1995; Махкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1994; Хайдаров К. Мусулмонларнинг миллий урф-одатлари. – Самарқанд: Адабиёт ва санъат, 1991; Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия хақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998. –Б. 184; Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2005; Иномова М. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий кадриятлар. – Тошкент: Фан, 1995.

«Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar o‘yg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etish hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zarurati va pedagogik-psixologik yo‘nalishlarini asoslab berish;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalari va modellarini asoslab berish;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘yektini** globallashtirish jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** globallashtirish jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarining pedagogik-psixologik jihatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida kuzatish, turli manbalarni tahlil qilish, pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish, test, so‘rovnoma, suhbat, pedagogik tajriba-sinov mashg‘ulotlari o‘tkazish, taqqoslash, olingan natijalarni hisobga olish, tahlil qilish, umumlashtirish, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zarurati tarbiya tamoyillarining zamonaviy jamiyat talablariga mos holda o‘zgarishi hamda taraqqiyot tendensiyalariga muvofiqligini faktik jihatdan asoslash orqali aniqlashtirilgan;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlari zamonaviy tarbiya shakllarini vitagen tarbiya integratsiyasini taminlashning ustuvor yo‘nalishlariga epistemologik va kognitiv tamoyillar vositasida qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish modeli darsdan tashqari vaqtlarda talaba yoshlarni tarbiyalashning shakl va usullarini tarbiyaga tasir ko‘rsatuvchi ob‘ektiv omillarga nisbatan qo‘llash hamda natijalarni xolis baholash strategiyasining pragmatik, empirik, plyuralistik omillarini kvalimetrik baholash orqali takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan;

talaba-yoshlarni tarbiyalashning amaliy-texnologik tizimi manaviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy xususiyatlarini globallashtirishning ijobiy tendensiyalariga metodik jihatdan deterministik omil sifatida moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

globallashtirish jarayonida talabalarni tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari takomillashtirilgan;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zarurati va pedagogik-psixologik yoʻnalishlari aniqlangan;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyalari va modeli ishlab chiqilgan;

globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan metod va usullar, ular asosida foydalanilgan nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olingani, mamlakatimiz, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi va xorij olimlarining ilmiy-tadqiqotlaridan keltirilgan tahliliy xulosalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining Styudent-Fisher kriteriyasi asosida ilmiy asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan ilmiy natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi; muammo respublika, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan eʼtirof etilgan respublika va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar orqali eʼlon qilinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni oʻqitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv – yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va ularni intellektual rivojlangan shaxslar boʻlib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi yuzasidan tadqiqotning ilmiy ahamiyati globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalash jarayonining nazariy-uslubiy jihatlari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy fanlarning taʼsirida ulkan ijodiy, intellektual, ijtimoiy-siyosiy salohiyatga ega boʻlishida va talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, globallashtirish sharoitida talabalarni oʻqitish jarayonida, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Globallashtirish jarayonlarida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

tarbiya tamoyillarining zamonaviy jamiyat talablariga mos holda oʻzgarishi hamda taraqqiyot tendensiyalariga muvofiqligini faktik jihatdan asoslash orqali aniqlashtirilgan globallashtirish jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruratini asoslashga doir takliflardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997 «Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida manaviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari» mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (T.N.Qori-

Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 17-noyabrdagi 324/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, globallasuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zarurati va pedagogik-psixologik yo'nalishlarini asoslashga xizmat qilgan;

zamonaviy tarbiya shakllarini vitagen tarbiya integratsiyasini taminlashning ustuvor yo'nalishlariga epistemologik va kognitiv tamoyillar vositasida qo'llash asosida takomillashtirilgan globallasuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat universitetida bajarilgan JHBL-22 «Oiladagi jinoyatlar va zo'rvonliklar, oiladagi krinogen muhit, kelib chiqish sabablarini tadqiq etish» mavzusidagi qisqa muddatli ilmiy loyahasida amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023-yil 12-yanvardagi 09-03/10 son ma'lumotnomasi). Natijada, globallasuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilishiga xizmat qilgan;

darsdan tashqari vaqtlarda talaba yoshlarni tarbiyalashning shakl va usullarini tarbiyaga tasir ko'rsatuvchi obektiv omillarga nisbatan qo'llash hamda natijalarni xolis baholash strategiyasining pragmatik, empirik, plyuralistik omillarini kvalimetrik baholash orqali takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan globallasuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish modeli bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan I1-XT-O-17222 raqamli «Qoraqalpoq milliy mentalitetini o'quvchi yoshlarga singdirishda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish» mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 15-noyabrdagi 319/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, yurtimizda boshlangan barcha ezgu ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad – davlatimiz salohiyatini oshirish, xalqimiz farovonligini ta'minlash, ozod va obod Vatan poydevorini mustahkamlash, yoshlarimizning o'qib-o'rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, sog'lom va manaviy etuk avlod bo'lib voyaga etishi yo'lida keng ko'lamli islohotlarning mazmunini keng ommaga to'g'ri tushuntirishga xizmat qilgan;

ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy xususiyatlarini globallasuvning ijobiy tendensiyalariga metodik jihatdan deterministik omil sifatida moslashtirish asosida takomillashtirilgan talaba-yoshlarni tarbiyalashning amaliy-texnologik tizimiga oid ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston bo'limining mutaxassislari, tegishli vazirlik va tashkilotlari, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Nukus shahri mutaxassislari, tuman bo'lim rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan seminar treninglarda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 14-fevraldagi 01-13/44-son ma'lumotnomasi). Natijada, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston bo'limining mutaxassislari, tegishli vazirlik va tashkilotlariga, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Nukus shahri mutaxassislari, tuman

bo‘lim rahbarlariga «Ma‘naviyat va ma‘rifat soatlari»ni tashkil qilish va o‘tkazib borishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va respublika, shundan 3 tasi xalqaro, 5 tasi respublika miqyosidagi konferensiyalarda aprobatyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashirlarda 6 maqola, shundan 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismida** dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalash innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida globallashuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashni innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish holatining hozirgi vaqtdagi ahvoli, globallashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishning o‘rni va xususiyatlari va globallashuv jarayonida talaba yoshlarni tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish holatining tahlili keltirilgan.

Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektorni, balki siyosiy va ijtimoiy jabhalarda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma‘lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Globallashuvning asosi ham aynan shu ma‘lumotlarni qabul qilish, o‘zlashtirish, tahrir etish va uzatishdan tashkil topgan. Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo‘lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o‘rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Jahon miqyosidagi muammolar globallashuv jarayonida bir tomonlama hal etilishi darajasidan allaqachon yuqorilab ketdi. Hech kim, hech bir davlat masalalarga bir tomonlama yondasha olmaydi. Ilg'or, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan texnik qurilmalar inson ongi mahsuli sifatida Yer sharini, kosmosni, atrof -olamni to'liq nazorat ostida ushlab imkoniyatlariga erishmoqda. O'tgan asrlarda voqea-hodisalar o'tmish sifatida tarixdan joy oldi. Yangi fikr, yangi ong kelajak sari yangicha ko'rinishda dadil qadam qo'yimoqda. Jahon xalqlari dunyoda tinch-totuv, barqarorlik, hamjihatlik, yakdillik tamoyillari asosida demokratik jamiyatlar tashkil etib yashashga intiladi.

Yurtimizda boshlangan barcha ezgu ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad – davlatimiz salohiyatini oshirish, xalqimiz farovonligini ta'minlash, ozod va obod Vatan poydevorini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan. Yoshlarimizning o'qib-o'rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, sog'lom va ma'naviy yetuk avlod bo'lib voyaga etishi yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Har yili millatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini o'ylab hamda yoshlarimizning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zamonaviy maktablar qurilmoqda, ular eng so'nggi rusumdagi o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanmoqda. Shunday ekan, davlatimiz farzandlarimiz istiqboli uchun muttasil qayg'urayotgan bir paytda "globallashuv" bahonasi ostida tarbiyani izdan chiqaruvchi, ma'naviyatini kemiruvchi har qanday yot ta'sirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda kechayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sog'lom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo'lsin qo'ldan boy bermaslik – bugun suv va havodek eng muhim zaruratga aylangan. Kommunikativ faollikning yuqori darajasi iqtidorli yoshlarda ma'lumot va axborotlarga bo'lgan ehtiyojni ikki karra oshiradi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun, yoshlar oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Shubhasiz, zarur axborotlarga ega bo'lish davr talabi. Biroq, bugungi kunda, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o'zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson uchun axborot – eng ta'sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot yetkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'ya olmaydi. Insonning tabiati shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi. Ayniqsa iqtidorli o'quvchilar bunga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtai nazardan ular ma'lumotni ko'radi, eshitadi, o'qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kechayu-kunduz unga yetib boradigan axborotning ta'sirida yashaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimgadir ruhiy ta'sir qilmoqchi bo'lganlarga o'sha odamning psixologiyasi ko'maklashadi.

Shu nuqtai nazardan ularni zarurlarini olish, saqlash va uzatish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari”** deb nomlanib, unda globallashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati, globallashuv jarayonida darsdan tashqari vaqtlarda talaba-yoshlarni tarbiyalashning shakl va usullari va globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning ommaviy madaniyatga bo‘lgan immunitetini shakllantirishda ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Globallashuv tushunchasiga aksariyat hollarda insonning jamiyat moddiy, ma’naviy, xo‘jalik sohalaridagi o‘zgartiruvchilik faoliyati va uning yakunlari sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda globallashuv to‘g‘risida ko‘plab fikrlar mavjud. Abu Nasr Forobiy fikricha “har bir inson tabiatiga ko‘ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun kurashadi. Bunday yetuklikka shahar jamoasi orqali erishiladi”. Amerikalik professor S.Xantington “globallashuv” tushunchasini “rivojlangan” ma’nosida qabul qilishni taklif qiladi. Aslida globallashuvning tub mohiyatiga e’tibor bersak u qandaydir utopik qarashlar samarasi emasligi ham, yoki reaksiyon ruhdagi jangari-fantastik yondashishlar mahsuli emasligi ham aniq ko‘rinadi.

Yer shari G‘arb va Sharq globallashuvi ta’siri ostida o‘zining bugungi qiyofasiga keldi. O‘rta asrlarda fan-texnika yutuqlaridan harbiy maqsadda foydalangan evropalik hukumdorlar jahon mamlakatlari, xalqlari boshiga og‘ir musibatlar solgani tarixda ma’lum. Birinchi, ikkinchi jahon urushlari insoniyat boshiga qancha og‘ir kunlar solganini hamma biladi. Globallashuv jarayonida madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida urushlar paydo bo‘lishi to‘g‘risida fikrlarga borilganda ham bu fikr qanchalik globallashgan jamiyat vakili fikri ekan degan savol paydo bo‘lishi tabiiy.

Sharq globallashuvida qadimgi Xitoy tamadduniga asos solgan Konfutsiy ta’limoti, Daosizm, neokonfutsiychilik kabilar, Islom ilohiy dini ta’limotidagi insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘irilgan muqaddas oyatlar yoki hadislardagi globallashuv mujassamligi hayratlanarli.

Globallashuvning taqdirini o‘zaro urushlar, dunyoga hukmron bo‘lish g‘oyasi, mintaqalarda yakka hokim bo‘lib olib o‘z manfaatlari uchun boshqa kamkuch davlatlarni, xalqlarni talon-taroj qilish usullari emas, balki insoniyat taqdiri haqida qayg‘urib, hayot ne’matini kelajak avlodlarga taqdim etish yo‘lidagi hamjihat intilishlar hal qiladi.

Globallashuv darajasi shu ijtimoiy qurilma ichida muayyan shaxs, insonning kamol topishi uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bilan belgilansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XXI asr globallashuvida inson omili. Alloh taolo o‘z jalolati va qudrati ila insonga yaratuvchilik iqtidorini ato etdi. Odam muloqot quroli sifatida tildan, mehnat qurollari yaratish uchun aql va qo‘llaridan, yaratgan qurollaridan yaxshilik yo‘lida foydalanish uchun ong va tafakkurdan foydalandi. Inson globallashuv bosqichlaridan pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilar ekan, fikrlarini yangilik, yaxshilik yaratishga qaratadi. Ixtiro etgan narsalari ezgulik maqsadiga ishlatilishini istaydi.

Inson o‘z fitratidagi yaratuvchanlik xislatini tark etmaydi u o‘z yurtini, shahrini, qishlog‘ini, uyini va hokazolarni madaniylashtirib, go‘zallashtirib yashashni istaydi.

Vatanparvarlik hislarini davom ettiradi. O'zi yashab turgan mamlakat qonunlariga hurmat ruhida munosabatda bo'lish fuqarolarga tinchlik, xotirjamlik, ijodiy kamolot beradi. Inson davlat organlari, ijtimoiy jamiyatga yaxshi munosabatda bo'lib, o'z farzandlariga ham farovon turmush qurish sharoitlarini yaratish va o'rgatish yo'lida mehnat qiladi.

Jamiyat azolarining bir maqsad sari intilishlari shu jamiyatda barqarorlik va yuksalishiga zamin yaratadi.

Globalashuvlar tarixi o'rganilar ekan, ko'p hollarda insonning ma'lum globalashuvga qo'shgan hissasi haqida to'xtalinadi. Qadimgi Rim imperiyasi, antik madaniyat, Vizantiya, Mesopotamiya, qadimgi Misr madaniyati, qadimgi Xitoy tamadduni, Evropa uyg'onish davri globalashuvi va hokazolar. XXI asr fan-texnika taraqqiyoti insonga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Inson bugunga kelib nafaqat globalashuvlarga hissa qo'shuvchi individ, balki globalashuvlardan o'z ehtiyojlariga kerakligini olish va uni ijodiy takomillashtirish tomon qadam tashladi.


Hozirgi kunda talaba-yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularni tashqi salbiy ta'sirlardan himoyalash zarur.

Buning uchun biz ta'lim tarbiya metod va usullaridan maqsadga muvofiq foydalansak, ko'zlangan maqsadimizga erishimiz mumkin.

Milliy tarbiya metodlari ajdodlardan avlodlarga hayotiy faoliyat jarayonida vorisiylik tamoyiliga muvofiq uzatiladi. Shuningdek, ular avlodlar tomonidan to'plangan tajribalar asosida boyitilib boriladi. Milliy tarbiyani tashkil etishda samarali bo'lgan metodlar ijtimoiy munosabatlarining yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga muvofiq tanlab olinadi hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanadi.


Milliy tarbiya metodlari – muayyan jamiyatda ijtimoiy maqsadni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan tarbiyaviy ta'sirlar tizimidan iborat. Mazkur metodlar shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarda ijobiy mazmundagi sifatlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama, barkamol shaxs bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlashta xizmat qiladi.

Mazkur bobda globalashuv jarayonida talaba-yoshlarni tarbiyalashning modeli keltirilgan (1-rasm).



### 1-Milliy tarbiyani tashkil etishi.

Milliy tarbiyani tashkil etish chogʻida qoʻllanilayotgan tarbiya metodlari oʻzlarining yoʻnalishi, mazmuni va asosiy gʻoyasiga koʻra rang-barangdir. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodlarni quyidagi tarzda guruhlashni maqsadga muvofiq deb topdik (2-rasm):



## 2- rasm. Milliy tarbiya metodlarining turlari

